

Date: 13<sup>th</sup>January-2025

**MIRZO KENJABEKNING BOBUR G‘AZALIGA MUXAMMASI TAHLILI**

**Gulimova Rixsiya**

Urganch davlat universiteti magistratura bo‘limi

Adabiyotshunoslik:o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola shoir, tarjimon Mirzo Kenjabekning Zahiriddin Muhammad Boburning g‘azaliga bog‘lagan muxammasining tahliliga bag‘ishlangan. Shoirning Bobur g‘azalini munosib davom ettirganligi, badiiyati, vazni, qofiyasi xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** muxammas, Bobur, adabiy meros, ishq , mavzu, ko‘ngul, aysh, g‘am.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу стихотворения поэта, переводчика Мирзо Кенджабека, которое он приложил к газели Захириддина Мухаммада Бабура. Обсуждается достойное продолжение поэтом газели Бабура, его художественность, вес, рифма.

**Ключевые слова:** Мухаммас, Бабур, литературное наследие, любовь, сюжет, настроение, горе, скорбь.

**Annotation:** This article is devoted to the analysis of the poem of the poet, translator Mirzo Kenjabek, which he attached to the ghazal of Zahiriddin Muhammad Babur. The poet's worthy continuation of Babur's ghazal, his artistry, weight, and rhyme are discussed.

**Key words:** Muhammas, Babur, literary heritage, love, theme, mood, grief.

Sharq mumtoz she’riyatidagi go‘zal janrlardan biri bu muxammas hisoblanadi. Adabiyotshunos Y.Is’hoqov ta’biri bilan aytganda, muxammas o‘zbek adabiyotida “g‘azaldan keyin eng ko‘p yaratilgan lirik janr”dir.<sup>1</sup> Bilamizki, lirik turdag'i janrlar turlicha tasnif qilinadi. Ularning tasnif qilinishi esa quyidagicha:

- 1) Mazmun jihatdan lirik janrlar;
- 2) Shakl jihatdan lirik janrlar;

3) Misra va band tuzilishiga ko‘ra tasnif qilinadigan lirik janrlar. Biz so‘z yuritayotgan muxammas esa uchinchi tur tasniflashga, ya’ni misra va bandning tuzilishiga ko‘ra tasniflanuvchi janrdir.

Adabiyotshunoslik lug‘atlarida muxammasga quyidagicha ta’rif beriladi: Muxammas (arabcha – beshlik) har bir bandi besh misradan iborat bo‘lib, musammatning eng ko‘p tarqalgan turi. Qofiyalanishi: a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, d-d-d-d-a kabi shaklda bo‘ladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida muxammasning dastlabki namunalari XV asrning birinchi yarmi shoirlari ijodida uchraydi.<sup>2</sup>

Muxammas mumtoz adabiyotimizning go‘zal janrlaridan bo‘lib, manbalarda uning ikki turi farqlanishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bular mustaqil va tazmin ko‘rinishidagi

<sup>1</sup> Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014, 127-bet

<sup>2</sup> Xoliqova G. O‘zbek mumtoz she’riyatida janrlar. – Samarqand, 2017, 56-bet

Date: 13<sup>th</sup>January-2025

muxammaslardir. Mustaqil muxammaslar shoirning o‘z fikrlari, g‘oyalari asosida yaratilsa, tazmin muxammas esa biror ustoz-salaflarning yoki zamondosh shoirming g‘azaliga qiyosan yozilganligi bilan farq qiladi. Muxammasning ilk namunalari Xorazmiy, Gadoiy devonlarida uchraydi. Muxammas haqidagi dastlabki ma’lumotlarni Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs” asarida uchratishimiz mumkin. O‘zbek adabiyotidagi muxammaslarning paydo bo‘lishi Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq. Navoiydan tashqari, jumladan, Mashrab, Ogahiy, Turdi Farog‘iy, Ahmad Tabibiy va boshqa ko‘plab shoirlar ijodida muxammasning mukammal namunalari bor.

Muxammas qanchalik mumtoz janr bo‘lmisin, uning rivojiga hissa qo‘sghan shoirlar ham shunchalik ko‘p. Muxammaslar faqat o‘tgan asrlarda yashab, ijod qilgan shoirlar tomonidan yaratilibgina qolmay, balki bugungi kunda ham ijod qilyotgan shoirlarning adabiy merosidan joy olgan. Xususan, bugungi o‘zbek she’riyatida ham muxammas yozgan shoirlar talaygina. Ana shunday ijodkorlardan biri sifatida mahoratlari shoir Mirzo Kenjabekni ko‘rsata olamiz.

Mirzo Kenjabek adabiy merosidan o‘rin olgan she’rlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan, diniy mavzudagi she’rlar salmoqli o‘rin tutadi. Ularda Allohga muhabbat, iymon, e’tiqod, vijdon, poklik, erk, visol kabi sof insoniy tuyg‘ularning tarannum etilishiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, shoirning Navoiy, Bobur, Mashrabning g‘azallariga tazmin-muxammaslarida ham bu kabi tuyg‘ularning ulug‘lanishini ko‘rshimiz mumkin.

*O‘zni, ko‘ngul, aysh bilan tutmoq kerak,*

*Bizni unutqonni unutmoq kerak* misralari bilan boshlanuvchi Boburning besh baytli g‘azaliga yozgan tazminida ham shu tuyg‘ular qalbdan kuylanadi. Mazmun jihatdan ham, uslub jihatdan ham ushbu g‘azal munosib ravishda muxammas holiga keltirilgan. Muxammasning dastlabki bandi quyidagicha:

*Erk-u visol onini kutmoq kerak,*

*Ichga hayot zahrini yutmoq kerak,*

*Balki xayol bahridin o‘tmoq kerak,*

*O‘zni, ko‘ngil, aysh ila tutmoq kerak,*

*Bizni unutganni unutmoq kerak.*

Inson hayoti davomida turli xil sinovlarga, qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy hol.

Hayot pillapoyalarida ba’zan yugurishimiz mumkin bo‘lsa, ba’zan yurishimiz ham mushkullashadi. Inson shunday qiyin holatlarda hayotning zahrini ichiga yutadi. Shu mashaqqatlarga sabr qilib, yaxshi kunlarga yetishishga qalbdan ishonadi. Ko‘nglidagi iymoni uni Allohga, uning jamoliga yetishishiga doimo undab turadi. Shuning uchun ham ko‘ngil o‘zini xotirjam his qilishi, g‘am-tashvishlarni unutib, iymon lazzatidan baha olish kerakligi ta’kidlanadi.

*Baski, yurak zavqiga cholg‘u berib,*

*G‘am qo‘s Shiniga maydin og‘u berib,*

*Hasta umidga gul-u doru berib,*

*Aysh-u tarab gulbunig‘a suv berib,*

*G‘ussa niholini qurutmoq kerak.*

Date: 13<sup>th</sup>January-2025

Muxammasning ikkinchi bandida birinchi bandida aytilgan iymon lazzatidan babra olgan ko‘ngilning, yurakning zavqi yanada oshishi uchun unga cholg‘u berishi, g‘am qo‘shiniga og‘u berib, uning ustidan g‘alaba qilganini cholg‘udan yangragan kuy ila qutlashi kerakligi aytiladi. Bu dushman yana yurak zavqiga rahna solmasligi uchun aysh-u tarab gulbuniga suv berib, g‘am-g‘ussanining niholini quritish, so‘ngra uni yo‘q qilishiga chog‘langanini ko‘ramiz.

*Charchagan el ko ‘zida nam ko ‘p durur,  
Motam ila jabr-u sitam ko ‘p durur,  
Bandasiga band-u qaram ko ‘p durur,  
Har nimag ‘a g‘am yema, g‘am ko ‘p turur,  
Aysh bila o ‘zni ovutmoq kerak.*

G‘am-u g‘ussadan toliqqan xalqning ko‘zidan yoshi to‘xtamay, oxiri bu g‘am motamga aylanganligining ta’rifi borar ekan, bu motam sira tugamaslidan bandaning bandagi qulligi, qaramligi tasvirlangan. Bilamizki, banda o‘zi kabi bir bandaga emas, Yaratganga quldir. Ammo g‘am qancha ko‘p bo‘lsa ham, vaqtি kelsa barchasi tugashiga ishongan ko‘ngil o‘zini aysh bilan ovutib turmog‘i, o‘tkinchi g‘amlarga ko‘z yumishi darkorligi uqtiriladi.

*G‘amda – ulus boshi xamidin ko ‘ngil,  
Pora – asorat alamidin ko ‘ngil,  
Shu’la ol – ey erk shamidin, ko ‘ngil,  
Tiyra turur zuhd damidin ko ‘ngil,  
Ishq o ‘ti birla yorutmoq kerak.*

G‘amdan boshi egilgan ulusning ahvolidan ko‘ngilning poraligi aks ettirilgan ushbu bandda ham ko‘ngilga murojaatlar davom etadi. Unga erk shamidan shu’la olishni nasihat qiladi. Mashaqqatlardan qoraygan, qorong‘uda qolgan ko‘ngilni ishq o‘tining nuri bilan yoritishga chaqiradi. “Kerak” so‘zi g‘azalning o‘zidan o‘rin olgan. Bu yerda ham boshqa bandlarda bo‘lgani kabi radif sifatida qo‘llanilgan.

*Top iloj bo ‘lgali sobir, ko ‘ngil,  
Qayg‘uni o ‘z ichingda qovur, ko ‘ngil,  
Elga mening dodimisovur, ko ‘ngil,  
Qo ‘yma mashaqqat aro, Bobur, ko ‘ngil,  
O ‘zni farog‘at bila tutmoq kerak.*

Barcha qiyinchiliklarni yengish uchun sabrli bo‘lib, o‘zini sobir tutishga urinayotgan ko‘ngilga qayg‘ularingni o‘z ichingda qoldir, deyilgan dastlabki ikki misradan so‘ng shoir o‘zining dodini elga sovurishga buyuradi. So‘ngra yana ko‘ngilga o‘zi ham mashaqqatlardan ichra qolmasdan, farog‘atli bo‘lishini, har ne qiyinchiliklar bo‘lsa ham barchasi o‘tguvchi ekanligini yana bir bor eslatadi.

Aslini olganda, tasavvufda ham shunday, banda doim Allohdan umid qilishga chaqirilgan. Musibatlar, sinovlar o‘tkinchi ekanligi, ularga sabr qilishga, ko‘ngildagi iymonni mustahkam qilishga undalgan. Ko‘ngildagi iymon mustahkam bo‘lishi uchun esa insonning ruhi sof, vijdoni pok bo‘lishi darkor. Xulosa qilib aytadigan bo‘l sak, yuqoridagi muxammasda ham ko‘ngilning g‘am-u tashvishlardan kirlanmay qolishi, o‘zini doimo pok

Date: 13<sup>th</sup>January-2025

saqlashi kerakligini shoir chiroyli misralar bilan tasvirlab beradi. Boburning g‘azaliga munosib tarzda yozilgan ushbu muxammas ham Mirzo Kenjabek ijodining o‘ziga xosligini namoyon etgan desam adashmaymiz. Chunki shoirning boshqa she’rlarida ham eng asosiy mavzu Allohga ishq, unga munosib bandalik haqidadir. Bu muxammas orqali ham shoirning o‘z individualligi yorqin satrlar bilan aks ettirilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Is’hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – T.: O‘zbekiston, 2014
2. Kenjabek M. Hayot sadolari. – Toshkent: Qamarmedia, 2022
3. Xoliqova G. O‘zbek mumtoz she’riyatida janrlar. – Samarqand, 2017
4. <https://tafakkur.net>